



Madness as a Sufi concept in Askar Makhkam's poetry

Gulshoda BAKHTIYOROVA¹

Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025

Received in revised form

10 April 2025

Accepted 2 May 2025

Available online

25 June 2025

Keywords:

Askar Makhkam,
Sufism,
madness,
madman,
dervish,
poem,
divine love.

ABSTRACT

Askar Makhkam, a true devotee of truth, also embraced Sufi and mystical ideas in his creative works. This article analyzes the concept of madness and the image of a madman expressed in the poet's poems, based on Sufi principles.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss7/S-pp49-56>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Asqar Mahkam she'riyatida devonalik tasavvufiy istiloh sifatida

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Asqar Mahkam,
tasavvuf,
devonalik,
devona,
darvesh,
she'r,
ilohiy ishq.

Haq oshig'i Asqar Mahkam o'z ijodida tasavvuf va tasavvufiy g'oyalarga ham ergashgan. Ushbu maqolada shoirning she'rlarida ifodalangan devonalik tushunchasi va devona obrazi tasavvufiy g'oyalar asosida tahlil qilinadi.

¹ Student, Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni. E-mail: bakhtiyorovagulshoda@gmail.com

Безумие как суфийский термин в поэзии Аскара Махкама

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Аскар Махкам,
суфизм,
безумие,
безумец,
дервиш,
поэзия,
божественная любовь.

Влюбленный в Истину Аскар Махкам в своем творчестве также следовал суфизму и суфийским идеям. В данной статье анализируются понятие безумия и образ безумца, выраженные в стихах поэта, на основе суфийских концепций.

Tasavvuf ta'limoti uzoq yillik tarixiy taraqqiyotga ega bo'lib, islom olamida VIII asr o'rtalarida shakllangan. Nazariy asoslari esa IX asr boshlarida paydo bo'la boshlagan. Bu ta'limotning asosiy maqsadi komil inson tarbiyasi va nafsni yengishdir. U ta'limot bo'libgina qolmay, adabiyotning ham bir bo'lagidir. Tasavvuf adabiyoti Mansur Halloj, Robiya Adaviyyalardan tortib Jaloliddin Rumi, Ahmad Yassaviy, Mashrablargacha va undan keyin ham adabiyotning asosi, ajralmas bo'lagi bo'lib kelmoqda. Keyingi davrlar she'riyatida bu holat kam uchray, ko'proq falsafiy, odamni o'ylashga majbur qiladigan modernistik ruhdagi she'rlar yozilayotgan bo'lsa ham uni butunlay yo'qolib ketgan deb ayta olmaymiz. Xususan, Asqar Mahkamning she'rlarini ana shunday xususiyatga ega adabiyot durdonalari qatoriga kirita olamiz. Shoirning tasavvufiy g'oyalar aks etgan she'rlarida ilohiy ishq bilan birgalikda devonalik ham tarannum etiladi. Ko'pchilik maxsus ma'lumotga ega bo'lmaganlar devona deganda aqldan ozgan yoki qashshoq odamni tushunishadi. Tasavvuf adabiyotida esa devona Allohning vasliga yetishish umidida zikr-u sanoga berilib, bu dunyo ishlaridan voz kechgan so'fiy, darveshsifat odam hisoblanadi. Najmiddin Komilovning "Tasavvuf" kitobida devona tushunchasining o'rnida darvesh so'zi sinonim sifatida ishlatiladi. Darvesh ham, tasavvufiy ma'nodagi devona ham Haq roziligi va jamoliga erishish uchun butun borlig'idan, havaslaridan, nafsoniy istaklaridan voz kechadi. Kamtarlik hamda xokisorlikni o'ziga kasb qilib oladi. Faqat zikrda, toat-ibodatda bo'lib, so'fiyona qarashlarga ega bo'ladi. Ular tashqaridan kambag'al, nochor bo'lib ko'rinsalar-da, ma'naviy olami boy, ilohiy ishqni qalbi bilan his qiladigan eng boy insonlar bo'ladilar. Demak, devonalik Haqqa oshiqlik va nafsni jilovlay olish degani. Asqar Mahkamning devonalik tasavvufiy tushuncha, devona esa tasavvufiy obraz sifatida ifoda etilgan she'rlariga "Shod o'lma..." she'ri, mazmuni har xil, sarlavhasi bir xil ikkita "Devonalik" she'rini misol qilib keltira olamiz. Shoirning 1999-yil 11-oktabrda yozilgan "Devonalik" she'rida devonalik qilishga da'vat ruhi yaqqol sezilib turadi.

*Xotif bu kun qildi nido:
"May ol qo'lingga bedavo,
Shuldir senga Haqdan jazo,
Devona bo'!
Devona bo'!"*

Ushbu banddagi xotif soʻzi gʻaybdan ovoz yuboruvchi, chaqiruvchini ifodalaydi. Bu obrazni yana mumtoz adabiyot namunalarida ham uchratamiz. Sheʼrda nazm etilishicha, gʻaybdan “May ol qoʻlingga, bedavo...” chaqirigʻi keladi. Tasavvuf adabiyotida may ilohiy ishqni ifodalaydi. Bu chaqiriq aynan bedavoga qaratilgan. Bedavo deganda biz har xil insonni tushunamiz. Jismi kasallarni ham, ruhi dardga chalinganlarni ham. Biror ogʻir dardga yoʻliqqan, tibbiyot ham kasalining davosini topa olmagan tanasida dardi bor insonlar ham, qalbi va ruhi hasaddan, yovuzlikdan, nafsdan toʻlib ketgan maʼnaviy bemorlar ham, koʻngli boshqalarning zulmidan ozor koʻrgan mazlumlar ham bedavo deya taʼriflanadi. Ularga gʻaybdan qoʻliga may olishlari, yaʼni Allohga ishonish, Unga nisbatan koʻngilda ilohiy ishq hosil qilishlari xitob qilinadi. Bu ular uchun ijobiy maʼnodagi “jazo”dir. Aslida esa bu eng oliy mukofot boʻladi. Chunki hamma ham chin dildan Allohga bogʻlanib, ilohiy ishqni butun vujudi bilan his qila olmaydi. Devonalar esa bu baxtga muyassar boʻlganlardir. Ular devona boʻlmasdan oldin, albatta, bedavo boʻlganlar. Bedavoda dard boʻladi, lekin u devonaga aylansa, bu dardlar uning uchun bir zarrachalik ham ahamiyatga ega boʻlmay qoladi. Negaki uning butun borligʻi ilohiy ishq bilan limmo-lim, dardlarga esa oʻrin yoʻq.

*Bilsang, bu dunyo xorlik,
Bechora-yu nochorlik,
Qoʻy qilma bozorgonlik
Devona boʻl!
Devona boʻl!*

Yuqoridagi bandda esa shoir bu dunyoni “xorlik”, “bechora-yu nochorlik” deb taʼriflaydi. Buni ikki xil maʼnoda tushunamiz, xususan, bir tomondan xorlik deganda dunyo tashvishlaridan, azoblardan insonlarning chorasiz holatga tushishi, xor boʻlishi nazarda tutilgan boʻlsa, boshqa tomondan, aslida, bu oʻtkinchi dunyoning neʼmatlariga mukkasidan ketish, nafsoniy istaklarga berilish chin maʼnodagi nochorlik, ruhan bechoralik sifatida baholanadi. Dunyo bir bozor boʻlsa, u yerda bozorgonlik, yaʼni savdogarlik qilmay, devonalik qilish yagona va eng afzal chora sifatida koʻrsatiladi.

*Bilsang, bu dunyo pastdir,
Zol-u zalil nokasdir,
Haqdir, oʻshalkim mastdir,
Devona boʻl!
Devona boʻl!*

Bu bandda esa ijodkor dunyoni “past” deya taʼriflaydi. Chunki u doimo kajraftor, teskari aylanadi. Yomonlar farogʻatda, yaxshi insonlar esa qiyinchiliklar ostida qoladi. Ikkinchi misradagi “zol”, “zalil” soʻzlari mumtoz soʻzlar boʻlib, shoir ulardan ham mohirona foydalana olgan. Zol _ adashgan, makkor kampir, zalil _ xor, nokas _ pastkash degan maʼnolarni bildiradi. Shoirning fikricha, bu oʻtkinchi dunyo insonlarni makkor kampirdek aldaydi. Xor qiladi, ming bir dardga duchor qiladi. Pastkashlik va adolatsizlik qiladi. Buni faqat ilohiy ishqdan mast boʻlganda, devona boʻlgandagina yengish mumkin. Ana shunday inson doimo nohaq emas, haq boʻladi.

*Qo'ysam qadam mayxonaga,
Ketsam cho'kib paymonaga,
Devonalik qilgum kelur,
Devonalik qilgum kelur.*

Ushbu she'riy parcha Asqar Mahkamning ikkinchi "Devonalik" she'ridan olingan bo'lib, unda ilohiy ishqni vujudi bilan his qilishni xohlaydigan inson tuyg'ulari aks etgan. Mayxona tasavvufiy ma'noda pirlar, murshidlar davrasi hamda majlisini ifodalaydi. Ularning suhbat, nazari bilan ko'ngilda ilohiy ishq paydo bo'ladi. Paymona esa Alloh ishq bilan to'la ko'ngildir. Shoir "ketsam cho'kib paymonaga" deganda, qalbni ilohiy ishq bilan limmo-lim qilishni, boshqa hech narsaga o'rin qoldirmaslikni nazarda tutyapti. Oxirgi misralarda bir xil jumlaning takrorlanishi ta'sirchanlikni oshirib, lirik qahramonning emotsional holatini kuchaytirgan.

*Boqsam umr karvon ekan,
Karvon tugal armon ekan,
Devonalik qilgum kelur,
Devonalik qilgum kelur.*

Ushbu misralarda esa Asqar Mahkam dunyoni "karvon" deb ta'riflaydi. Chunki to'xtamay yuraveradi. Yo'lovchilar qanday mashaqqatlarga duch kelmasin, manziliga yetishmaguncha yo'lida davom etaveradi. Dunyo ham ana shunday o'tkinchi. Biz esa undagi yo'lovchilarmiz, bir manzilda to'xtab turmaymiz, vaqt o'tgan sari umrimiz ham oxirlab boraveradi. Lekin bu karvon "tugal armon". Har bir o'tgan kunimiz, oyimiz yoki yilimizda bir nimalarnidir qilishni xohlagan bo'lamiz, lekin qila olmaymiz. Bu esa armonlarga aylanadi.

*Kelsa, chopay deb do'stimiz,
"Chopsang-da chop Mansurmiz".
Devonalik qilgim kelur,
Devonalik qilgum kelur.*

Yuqoridagi bandda lirik qahramon do'st niqobidagi dushman haqida gap boshlaydi. Agar "do'sti" "chopay deb" kelsa, ya'ni orqasidan pichoq sanchsa, ishonchini poymol qilsa, xiyonat qilsa ham devonalik qilgisi keladi. Chunki tasavvufiy ma'nodagi devona Allohdan boshqa hech kimsaga, narsaga bog'lanmaydi. Qalbida, aqlida, butun borlig'ida faqat Ugina bo'ladi. Yomonliklarga uchrasa ham "Chopsang-da, chop Mansurmiz" deb turaveradi. Mansur Halloj o'zining "Ana al-Haq", ya'ni "Men Haqman" jumlasini bilan tasavvuf adabiyotida mashhurdir. Zamondoshlari esa uni shu gapi sababli shakkoklikda ayblashgan. Aslida, esa Mansur Halloj bu fikri bilan o'zida Allohning bir zarrasi borligini, U bizga jon tomirimizdan ham yaqinroq ekanligini nazarda tutgan.

Asqar Mahkamning tasavvufiy ma'nodagi devonalikka undash g'oyalari ilgari surilgan she'rlari illatlarni tark etib, go'zal insoniy fazilatlar sohibi bo'lishga, ezgulikka, nafsni yengib, komil inson bo'lishga, dunyoning o'tkinchi ne'matlariga berilib, ma'naviyat olamini esdan chiqarib qo'ymaslikka da'vat etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Asqar Mahkam. Bu ishq edi. Toshkent. "Tafakkur", 2017-y.
2. Komilov N. Tasavvuf. Toshkent: "Movarounnahr" "O'zbekiston". 2009-y.
3. Shamsiyev P. Navoiy asarlari lug'ati. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972-y.
4. <https://izoh.uz> internet sayti.